

INGLIZ, NEMIS VA O`ZBEK TILLARIDA INKOR KONSEPTINING O`ZIGA XOSLIGI VA BADIY ASARLAR TARJIMASIDA QO`LLANILISHI

Xolmuratov Jahongir Majitovich

Sam DCHTI Payariq xorijiy tillar fakulteti nemis tili fani o`qituvchisi

Alibekova Dilrabo Abdiraimovna

Sam DCHTI Payariq xorijiy tillar fakulteti ingliz tili fani o`qituvchisi

Annotatsiya: *Inkor konsepti va uning badiiy asarlarda qo`llanilgan holatlarining semantik, autsentik, emotsional tarzda ingliz, nemis, va o`zbek tillaridagi tarjimadagi o`rnini tahlil qilamiz.*

Kalit so`zlar: *inkor gaplar, “not“, “nicht“inkor yuklamasi va “never“,“nie“ inkor ravishlari va bo`lishsizlik olmoshilari,*

Kirish

Ma`lumki, kishilar o`rtasidagi aloqaning eng muhim vositasi, fikrni boshqalarga yetkazuvchi qurol bu tildir. Dunyo yaralibdiki turli millatlar, elatlar, xalqlar madaniyati, yashash qonun qoidalari asrlar davomida rang barang ko`rinishda shakllanib o`zgarib kelmoqda. Ushbu xalqlar kelib chiqish etimologiyasi turli mintaqalarga borib taqaladi va bu turli madaniyat hamda bir biriga o`xshamagan nutq shakllanishini yuzaga keltirgan va keltirmoqda. Asrlar davomida ayrim tillar nutqda qo`llanilishidan to`xtagan bo`lsa boshqa tillar mintaqaviy mustamlakalar tufayli dominant holatga o`tgan.

Har bir davr insoniyat uchun ilm fan kashfiyotlar va izlanishlar eshigini ochdi va bu tarix zarvaraqlarida o`z aksini topdi. Bunday rivojlanish ko`rsatgichlari tilshunoslik sohasining boyishiga o`z ta`sirini o`tkazdi va turli davlat tillarini qiyosiy o`rganish imkoniyatini yaratib berdi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so`ng xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalar o`rnatish yana ham rivojlandi. Respublikamizning viloyatlari, ko`p shahar va tumanlari chet el sarmoyadorlari bilan birgalikda juda ko`plab qo`shma korxonalar ochildi. Bulardan tashqari yurtimizda ko`pgina xalqaro musobaqalarning o`tkazilishi, xalqaro tashkilotlar, vakolatxonalarning rasmiy faoliyat olib borayotgani mamlakatimizda kelayotgan sayyohlarning soni kundan-kunga ortib borayotgani xorijiy tillarni o`rganishga bo`lgan e`tiborni yanada kuchaytirmoqda [3, 592].

Yevropa tillarini o`zbek tili bilan qiyoslaganimizda bir qator farqli jihatlarga e`tibor qaratishimiz mumkin. Ingliz, nemis va o`zbek tillarida inkor konseptining nutqda qo`llanilishi, ularning grammatik til qoidalariga mutanosibligini



o`rganayotganimizda yoki tarjima qilingan asarlardagi jummalarni qiyosiy taxlil qilganimizda bir qator mulohazaga chorlovchi savollar paydo bo`ladi va quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin: Inkor yuklamasini qo`llagan holda nutqda ishlatish, tasdiq gaplarda inkor ma`nosining berilishi, uslubiy qurilmalar orqali inkor ma`nosining ifodalanishi, lingvo pragmatika orqali inkor tushunchasining qo`llanilishi kabi holatlardir.

Ushbu maqolaning mavzusi o`tmishda ham bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo`lib kelgan. Buning sababi shundaki inkor konsepti turli xalq tillarida turlicha nomoyon bo`ladi.

Asosiy qism

O`zbek tili va yevropa tillarini grammatik shakllanishi qoidalarini taxlil qilganimizda o`ziga xos mutanosibliklar va shu bilan birga bir qator farqli jihatlarni qiyoslab tadqiqot qilishimiz mumkin. O`zbek tilida inkor old qo`shimcha yoki fe`ldan keyin inkor qo`shimchalarini qo`shish orqali yasaymiz va bu grammatik qoidalarni yevropa tillarida ham uchratamiz.

Masalan: odobli-**beodob** polite-**impolite**. *höflich*- *unhöflich*

Yordamchi fe'llarda inkor **not** bilan yasaladi.

She can not know the truth. *Sie darf die Wahrheit nicht erfahren. U xaqiqatni aytishi mumkin emas.*

*I am **not** ready yet. Ich bin noch nicht bereit. Men hali tayyor emasman.*

*They **won't** come. Sie werden nicht kommen. Ular kelmaydi.*

Asosiy fe'l bo'lsa, inkorni kiritish uchun do/do/did yordamchi fe'lidan foydalaniladi: *He does not (yoki doesn't) play rugby. Er spielt kein Rugby. U rugby o'ynamaydi.*

They didn't go to the theater yesterday. Sie sind gestern nicht ins Theater gegangen. U kecha teatrga bormadi.

*He has **not** repaired the TV yet. Er hat den Fernseher noch **nicht** repariert. U hali televizorni sozlamadi.*

Inkor **never** (hech qachon) inkor olmasi orqali ham yasalishi mumkin.

I have never seen the Eiffel Tower. *Ich habe den Eiffelturm noch **nie** gesehen. Men eyfel minorasini hech qachon ko'maganman.* Ammo har bir tilning o`ziga xos til qoidalari borki ularni to`g`ridan to`g`ri tarjima qilganda bir qator g`alizliklar kelib chiqadi.

Masalan: *Neither book is interesting.* Bu jumalani o`zbek tiliga to`gridan to`gri tarjima qilsak bo`lishli gap bo`lib noto`g`ri tarjima qilinadi, ammo bu g`alizlikni bartaraf etish uchun antonim tarjimadan foydalaniladi va quyidagicha tarjima qilinadi: *Hech bir kitob qiziqarli emas.* Ammo nemis tilida bu namunadagi inkor



konsepti inkor formada yasashini ko`rishimiz mumkin: *Kein Buch ist interessant.* O`zbek tiliga tarjima qilingan asarlarni taxlil qilganimizda inkor konseptini to`g`ri qo`llash uchun tarjima turlariga to`g`ri yondashish maqsadga muvofiqdir. Biz badiiy asarlarni taxlil qilar ekanmiz bunday badiiy asarlardagi tarjima turlarining g`oyatda ustalik bilan qo`llanilganini guvohi bo`lamiz.

Masalan: *It was the best of times; it was the worst of times. It was the season of light; it was the season of darkness. It was the spring of hope; it was the winter of sadness. It was the year one thousand seven hundred and seventy-five.[A tale of two cities]-Bu vaqtlarning eng yaxshisi edi; bu vaqtlarning eng yomoni edi. Bu yorug'lik fasli edi; bu zulmat fasli edi. Umid bahori edi; Bu g'amgin qish edi. Bir ming yetti yuz etmish beshinchi yil edi. Bu asarda 1975 yillar ta`rifi bo`lishli formadagi gaplar orqali inkor ma`noda antonim tarjima vositasida g`oyatda mohirona yoritilgan.*

Frazeologik birliklar orqali inkor konseptining berilishi badiiy asarlarda kuchaytirish ma`nosini qo`llash imkonini beradi. Masalan: - – *I've got a cold. –It's in your feet.* (B. Manning) Mazkur dialogda so`zlovchilardan biri kasallikdan shikoyat qilmoqda, ikkinchisi esa buni kasallik emas, balki qo`rqqoqlik, deb hisoblayapti. Frazeologik birliklardan yana biri *to be narrow in the shoulders* iborasini taxlil qilinganda birinchi ma`nosi tor yelkali deb tarjima qilinsa ikkinchi ma`nosi hazilni tushunmaydigan odam ma`nosini beradi va gap bo`lishlida bo`lsa ham inkor ma`noga ega bo`ladi.

Teodor Drayser asarlariga murojaat qilsak undagi inkor konseptining iboralar orqali berilganini ko`zdan kechiramiz.

Masalan: ***You do not appreciate me in the least-*** Siz meni zarracha ham qadrlamaysiz

Don't you let on that you know me- Meni bilaman deb o`ylamang


No immediate opportunity presented itself- Hech qanday imkoniyat paydo bo`lmadi

He had no means of judging such a character- U bunday odamga qanday yaqinlashishni bilmas edi. ***Had no means of judging*** iborasining o`zbek tilida muqobil variant mavjud emas va bu ibora tasviriy ifoda yordamida tarjimada berilgan. [Teodor Drayser. Jenni Gerxard]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. *DUDEN: Die Grammatik, Mannheim (Bibliographisches Institut AG) 2009.*





2. ALBRECHT, H., HELBIG, G.: *Die Negation*, Leipzig (Verlag Enzyklopädie Leipzig) 1973.

3. Cheshire, J. 1998. „English negation from an interactional perspective“. In: Tiekens-Boon Van Ostade, I., G. Tottie & W. van der Wurff (eds.). *Negation in the History of English*. Berlin: Mouton de Gruyter,

